

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

1/2024

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay
Abdullayeva Shaxzoda
Djurayev Dusmurod
Ibraimov Xolboy
Kamilova Nodira
Quronov Maxammadjon
Madjadova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xaydarov Mamat
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

Maxsus maktab-internat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirishning ijobiy samarasi.....	215	psixologik omillari.....	307
Teshabayeva O.F.		Xasanova Sh.M.	
Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish.....	219	Технология организации развивающего образовательного пространства в старших группах ДОО.....	311
Isabekova D.Sh.		Azizova M.N.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirishda elektron o'yinlardan foydalanish.....	223	Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv: tarixiy-pedagogik konteksti.....	314
Buranova Sh.U.		Atabaeva D.	
Talabalarining texnik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	226	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida o'z-o'zini baholash ko'ikmasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari.....	319
Kobilov N.M.			
Harbiy ta'lim jarayonida modulli o'qitishning o'ziga xos jihatlari.....	229	GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI	
Qo'ylieva Sh.R.		Eshanova G.N., Tulenova K.J.	
Tinglab tishinish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarni takomillashtirishning ilmoiy-metodik xususiyatlari.....	233	Islomda ayol qadriyat sifatida.....	323
Jalilova N.T.		Kurbanova D.Sh.	
Pedagogik merosimizda xonliklar davrida ilgar surilgan didaktik qadriyatlar.....	237	Формирование социально-культурной компетенции в деятельности преподавателя иностранных языков.....	328
Maxmudov Yu.B.		Jumaniyazov Sh.	
O'quvchilarda shaxslararo qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat turlari.....	242	Ona tilida nazariy ma'lumotlar bilan ishlashda o'quv topshiriqlaridan foydalanish.....	332
Saidova Z.R.		Usmanaliev Kh.M.	
Ta'lim jarayonida raqamli ta'lim texnologiyasi edtechdan foydalanish samaradorligi.....	247	Formation of intercultural communicative competence of student in the process of learning foreign languages.....	337
Karaboyeva M.K.		Polvanova N.A.	
O'qituvchilarda ma'naviy dunyoqarashning deontologik asoslari.....	250	Adabiy ta'limda uyga fazifa sifatida berilgayotgan o'quv topshiriqlar mazmunini takomillashtirish.....	342
Алибаев Д.Ш.		Omonboyeva N.E.	
Развитие педагогической компетенции у родителей на основе сотрудничества семьи и школы.....	254	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda izohli o'quv lug'atlaridan foydalanish usullari.....	346
Erhanova N.A.			
PazMaktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish – keyingi ta'lim bosqichlari samaradorligi garovi.....	258	TABIIY FANLAR TA'LIMI	
Shadiev G.D.		Kayumova N.A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlashni takomillashtirish.....	262	Yoshlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish usuli.....	350
Yakubova Z.Z.		Artikbayeva Z.A.	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni milliy tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'rni.....	266	Arifmetik progressiya formulalari yordamida kimyo masalalarini yechish.....	353
Samadov A.A.		Jumanazarov S.S.	
O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirishning pedagogik modeli.....	270	Malaka oshirish jarayonida raqamli kompetentlikni shakllantirish masalalari.....	358
Qayumov B.Z.		Qurbanov O.X.	
Psixologik tadqiqotlarda kreativ va ijodkorlikning o'zaro munosabati.....	275	Prezident maktablari o'quvchilarining intellektual salohiyatini mantiqiy fikrash metodlari asosida rivojlantirish.....	361
Исманова Г.Г.		Qazaqbayev M.T.	
Интерактивные технологии вразвитии профессиональных компетенций у будущих педагогов.....	278	Fizikani chuqurlashtirib o'qitish jarayonida o'quvchilarning tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	364
Saparboyeva E.		Xidirova N.B., Kamolova S.M.	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari.....	282	Zamonaviy elektron vositalar asosida talabalarining mustaqil ta'lim olishlarini rivojlantirish.....	367
Doniyorova Sh.E.		Sobirov D.S.	
Talabalarining art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishda Triz texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	284	Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	372
Kudiyrova G.I.		Saidova D.E.	
Umumta'lim maktablari rahbarlarining o'zini-o'z bosqarish (selv-menejment) ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	288	Obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'qirish musmmosi.....	376
Pardayev X.O.			
Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik imkoniyatlari.....	292	SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI	
Xasanov M.S.		Моргунова И.И., Умаров М.Н.	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishni talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	295	Экспериментальная проверка эффективности этапов процесса обучения программным упражнениям на бревне.....	379
Xasanova Sh.M.		Babayeva D.X.	
Организация развивающей предметно-пространственной среды в дошкольной образовательной организации для детей старшего дошкольного возраста.....	300	Musiqiy madaniyat vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kompetentlari.....	383
Ortiqov X.T.		Xolikov R.S.	
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tibbiy tayyorgarlikni oshirishda oliy harbiy ta'lim muassasalarining ahamiyati.....	303	Mustaqillik yillarida dastgohli rangtasvir san'atidagi izlanishlar.....	388
Askarova N.A.		Ortiqova O.Sh.	
O'quvchilarda past o'zlashtirishni keltirib chiqaruvchi		Keng assortimentdagi liboslarni badiiy bezash usullari va vositalari.....	392
		Bobomurotova M.R.	
		Raqamli rangtasvirning zamonaviy san'atdagi o'ni.....	395
		USTOZ	
		Kurbanova G.A.	
		85 yoshni qarshilayotgan ijrochi ustoz, jamoat arbobi Ofeliya Yusupovaning mazmunli hayot yo'li.....	400

**TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Sobirov Dilshod Solayevich, UrDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish masalasi bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar markazida turibdi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida AKT infratuzilmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: kompyuter, elektron maktab, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, interaktiv doska, online dars, online testlar, online olimpiadalar, online kurs, online konferensiya.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ
ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

Собиров Дильшод Солаевич, исследователь УрГУ

Аннотация. Сегодня вопрос расширения использования современных технологий в системе образования находится в центре реализуемых в этом направлении реформ. В данной статье говорится о педагогических основах развития ИКТ-инфраструктуры в системе образования.

Ключевые слова: компьютер, электронная школа, электронное образование, дистанционное обучение, интерактивная доска, онлайн-урок, онлайн-тесты, онлайн-олимпиады, онлайн-курс, онлайн-конференция.

**PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPING INFORMATION
AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES INFRASTRUCTURE
IN THE EDUCATIONAL SYSTEM**

Sobirov Dilshod Solayevich, researcher of UrSU

Abstract. Today, the issue of expanding the use of modern technologies in the education system is at the center of the reforms being implemented in this regard. This article talks about the pedagogical foundations of ICT infrastructure development in the educational system.

Key words: computer, electronic school, electronic education, distance education, interactive whiteboard, online lesson, online tests, online Olympiads, online course, online conference.

Kirish. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan infratuzilmaga ega ta'lim tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. O'qitishning zamonaviy, innovatsion uslublari amaliyotga joriy etish, ta'limda AKTdan kengroq foydalanish zamonaviy dars va zamonaviy o'qituvchi faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. O'z faoliyatida innovatsion ta'lim shakllari va usullarini qo'llaydigan, ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirishga erishadigan, innovatsion metodlarni qo'llaydigan malakali o'qituvchilarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, texnik kasb-hunar ta'lim muassasalari, davlat o'rta maxsus ta'lim muassasalari va barcha oliy o'quv yurtlari kompyuter texnikasi bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Asosiy qism. Ta'lim tizimida AKT infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «1 talaba: 1 kompyuter» loyihasini sinovdan o'tkazish uchun bir qator tajriba maktablari tanlab olingan. Mazkur maktablarga jami 2000 dan ortiq netbuklar tarqatildi va maktablar simsiz internet bilan

ta'minlangan. Joriy yil boshida ba'zi umumta'lim maktablarida «Innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan tajriba sinfi» loyihasi doirasida AKT uskunalari bilan jihozlangan o'quv xonasi foydalanishga topshirildi. Sanab o'tilganlar ta'lim muassasalarida AKTga asoslangan kadrlar tayyorlash metodologiyasiga muvofiq infratuzilmani rivojlantirish ustuvor masalalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorida ta'lim muassasalarini internet, umumiy o'rta ta'lim bosqichidagi har bir o'quvchini elektron axborot vositalari bilan jihozlangan kompyuter-planshet bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur qarorga muvofiq, 2023-yil yakuniga qadar: raqamli texnologiyalar sohasida masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo'nalishida ta'lim olishini yo'lga qo'yish [1].

Yana bir e'tiborli jihati – elektron ta'lim texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish maqsadida 2008-yildan buyon «Elektron maktab» loyihasi doirasida Emaktab.uz (kundalik.com) platformasi amalga oshirildi. «Emaktab» platformasida elektron jurnal, kundalik va ota-onalar nazorati tizimidan foydalaniladi. Ushbu vositalar yordamida maktablarning ichki boshqaruvi amalga oshiriladi, o'quvchilarni baholashda elektron jumallar qo'llaniladi, ota-onalar farzandlarining davomatini onlayn yoki SMS orqali nazorat qilishlari mumkin. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shubhasiz, maktablarni kompyuterlashtirishda katta yutuqlarga erishdi. Umumta'lim maktablari uchun bo'lajak o'qituvchilarning AKTdan foydalanish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish zarur, ya'ni takomillashtirish shaxsiy xususiyatlar majmuasini shakllantirish, AKTdan foydalanish bo'yicha kelajakdagi kasbiy faoliyatda o'zini o'zi tashkil etishning zarur darajasini ta'minlash [2].

Umuman olganda, O'zbekistonda pedagog xodimlarning kompyuterda ishlash ko'nikmalarini egallashiga katta ahamiyat beriladi. Shunday qilib, umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tamomlagan pedagog kadrlar soni mamlakatimiz bo'yicha ortib bormoqda. Sanab o'tilganlar O'zbekistonda ta'limni modernizatsiya qilish, o'quv-tarbiya jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash borasida Prezident Sh.Mirziyoyevning maqsadli siyosatidan dalolat beradi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi paytlarda amalga oshirilgan islohotlar bu boradagi ulkan yutuqlardan dalolatdir. Mavjud ishlanmalarning butun majmuasini tahlil qilish va tizimlashtirish, ulardagi fundamental asoslarni aniqlash va XXI-asr pedagogika fani haqidagi ilmiy g'oyalarning yaxlit tizimiga integratsiyalashuvi kompyuterlashtirish muammosining ikkinchi beqiyos katta va muhim jihati hisoblanadi [3].

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar izchil xarakterga ega ekani tahsinga sazovor. Prezident Sh.Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida ta'kidlaganidek, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanishi uchun hisoblangan. Davlat dasturining asosiy maqsadi ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llagan holda yagona umummilliy ta'lim muhitini shakllantirish va shu asosda aholining barcha qatlamlari uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tegishli vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ta'lim tizimida AKT infratuzilmasini rivojlantirish: ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya moddiy-texnika bazasini yaxshilash, kompyuter texnikasi va boshqa zarur raqamli uskunalarni ta'minlashni yaxshilash; ta'lim muassasalarida AKT jihozlarini texnik nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, shu maqsadda muassasalararo

aloqa va hamkorlikni rivojlantirish; ta'lim muassasalarining korporativ tarmoq infratuzilmasini, shuningdek, tarmoq infratuzilmasini boshqarish va nazorat qilish tizimini yaratish.

Elektron ta'lim texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish: barcha fanlar bo'yicha zamonaviy elektron ilmiy-metodik resurslar majmuasini ishlab chiqish va tarqatish; elektron ta'lim (E-Learning) resurs bazasini yaratish va o'quv jarayoniga integratsiya qilish; mamlakat ichida masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; ta'limda AKTni qo'llash bo'yicha axborot-resurs markazini yaratish; yagona ta'lim portalini yaratish va doimiy yordam ko'rsatish; ta'limda jahon axborot resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, o'qitishning interfaol imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim tizimida boshqaruvni axborotlashtirish: ta'lim sohasini boshqarish va tartibga solishda yagona axborot infratuzilmasini yaratish, ta'limni boshqarishda axborot tizimlari va texnologiyalarini samarali qo'llashni ta'minlash; ta'limni boshqarishning axborot tizimlarini rivojlantirish, «elektron hukumat» tamoyillarini qo'llashni kengaytirish; ta'limni boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlarini AKT uskunalari va tegishli dasturiy vositalar bilan ta'minlash.

Kadrlar salohiyatini mustahkamlash: ta'lim tizimi pedagogik va boshqaruv xodimlarining AKT savodxonligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; yangi uslub va texnologiyalar orqali professor-o'qituvchilar tarkibini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; hududlar va, ayniqsa, qishloq va chekka hududlardagi ta'lim muassasalarini AKT bilan ta'minlashni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; ijodkor va innovatsion o'qituvchilar faoliyatini xolisona baholash va samarali rag'batlantirish tizimini yaratish.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va qo'llash bilan bog'liq amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlar monitoringini olib borish; ta'limni boshqarish va ta'lim jarayonini axborotlashtirish sohasida zarur norma va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish; Davlat dasturining maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan AKT vositalaridan foydalanish va ularni ta'limda qo'llash bilan bog'liq normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish. Davlat dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar hisobidan ta'minlanadi.

Davlat dasturini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar, Davlat dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: ta'lim muassasalarini AKT bilan ta'minlash ko'rsatkichlari tubdan yaxshilanadi, barcha ta'lim muassasalarida bir o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyuterlar nisbati tubdan yaxshilanadi; barcha fanlar bo'yicha elektron o'quv-metodik resurslar yaratiladi; barcha fanlar bo'yicha o'quv rejalari va o'quv dasturlarida AKTdan foydalanish o'z aksini topadi; umumta'lim muassasalarining yangi avlod raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi, dastur resurslaridan samarali foydalaniladi; kadrlar tayyorlashning yangi shakllari (shu jumladan, masofaviy ta'lim) joriy etiladi va qo'llaniladi; barcha ta'lim muassasalarini qamrab olgan mahalliy korporativ va yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga kirish ta'minlanadi; ta'lim tizimidagi mavjud jarayonlarga jamiyatni jalb qilish va tarbiyalash uchun yagona ta'lim portalini yaratiladi; ta'limni boshqarishda AKTning samarali integratsiyasi ta'minlanadi, ta'limni boshqarish va monitoring samaradorligi oshiriladi; ta'lim muassasalari o'quv jarayonini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan ish o'rinlari bilan jihozlanadi; ta'lim tizimi pedagog va boshqaruv xodimlarining AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshadi, mahalliy ekspert salohiyati mustahkamlanadi; barcha ta'lim bosqichlari bitiruvchilari ko'p yillar davomida o'zlarining ijtimoiy, kasbiy va madaniy hayotida foydalanadigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar; innovatsion

va ijodkor o'qituvchilar qo'llab-quvvatlanadi; aholining barcha qatlamlari uchun sifati va AKTga asoslangan ta'lim dasturi bilan ta'lim olish imkoniyati yaratiladi; AKTni ta'lim tizimiga integratsiyalash sohasida huquqiy, me'yoriy, ilmiy-uslubiy va hujjat bazasi shakllantiriladi.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy jamiyat har yili hayotimizning deyarli barcha sohalarida rivojlanib, taraqqiy etmoqda. Bizningcha, axborot insonlarning avloddan-avlodga bir-biriga beradigan, yangilab turadigan, tahrir qiladigan va to'ldiruvchi ma'lum bir bilim manbaidir. Bugungi kunda o'z bilimini to'ldirishga va mavjud bilimlarini yaxshilashga intilmaydigan zamonaviy insonni tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning sababi shundaki, hozirgi kunda ko'plab axborot manbalari mavjud va, birinchi navbatda, asosiy manba, shuningdek, foydalanish mumkin va ehtimol almashtirib bo'lmaydigan, bugungi kun Internetidir. O'quv jarayonida AKTdan foydalanish o'yin va o'quv faoliyatini uyg'unlashtirishga imkon beradi va shu bilan o'rta maktab o'quvchisining keyingi ta'lim uchun asos sifatida motivatsiyasi va bilim faolligini shakllantirishga yordam beradi. Bu yoshda bolalarda vizual fikrlash ustunlik qiladi. Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirish butun jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ajralmas qismi va sivilizatsiya mavjudligining yuqori darajada tashkil etilgan shakliga o'tishning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida qaraladi, bunda axborot tuzilmalarining rivojlanishi bilan bir qatorda insoniyat hayotining barcha sohalarini texnologiyalashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda. Ta'lim maqsadlarida turli xil elektron resurslarning paydo bo'lishi grafik tasvirlar, audiovizual, tovush, matn va boshqalar ko'rinishidagi ko'p komponentli axborot maydonini yaratadi.

Xulosa. Axborot texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish darslarni qiziqarli va badiiy qiladi. O'quvchilarga ma'lumotlar ko'ngilochar ko'rinishda taqdim etilsa, yaxshi qabul qilinadi, shuning uchun taqdim etilgan material osongina qabul qilinadi va xotirada yaxshi saqlanadi. Barchamizga ma'lumki, axborot-kommunikatsiya sohasining rivojlanishi bilan ta'lim ham yangi bosqichga ko'tarildi. Dunyoning istalgan nuqtasida turli xil Internet manbalaridan ma'lumot olishingiz mumkin. Elektron resurslardan (kutubxonalar, omborlar, arxivlar, ma'lumotlar bazalari va boshqalar) qulay foydalanish World Wide Web ma'lumotlaridan, shuningdek, boshqa keng tarqalgan AKT texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi, masalan: online darslar, online testlar, online olimpiadalar, online kurslar, online konferensiyalar, online seminarlardan ish faoliyatimizda foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - T., 23.08.2022. - 07/22/357/0763-son.
2. Ильясова Р.А. Теория и практика профессиональной подготовки будущих учителей к использованию информационно-коммуникативных технологий: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Туркестан: МКТУ, 2010. - 55 с.
3. Мирзоев А. Педагогическая технология как метод обучения с использованием технических средств. - Душанбе, 2005. - 69 с.